

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 147 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

Nematulloyev Suxrob Sobirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari, ularning turlari, ahamiyati va O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni keng tahlil qilingan. Unda tijorat banklari, mikromoliya institutlari, davlat dasturlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslarning roli yoritilgan. Shuningdek, moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyalashtirish manbalari, tijorat banklari, mikromoliya, davlat dasturlari, xalqaro institutlar, kichik biznesning YAIMdagi ulushi, eksport hajmi, davlat kafolatlari, kichik biznes tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

Abstract: This article explores the main sources of financing for small business entities, including their types, significance, and their role in Uzbekistan's economy. It emphasizes the contribution of commercial banks, microfinance institutions, government programs, and international financial organizations. The paper also presents recommendations to improve the efficiency of financing mechanisms.

Key words: small business, financing sources, commercial banks, microfinance, government programs, international institutions, share of small business in GDP, export volume, state guarantees, volume of services provided by small businesses.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные источники финансирования субъектов малого бизнеса, их виды, значимость и роль в экономике Узбекистана. Особое внимание уделяется деятельности коммерческих банков, микрофинансовых организаций, государственных программ и международных финансовых институтов. Также представлены предложения и рекомендации по повышению эффективности механизмов финансирования.

Ключевые слова: малый бизнес, источники финансирования, коммерческие банки, микрофинансирование, государственные программы, международные институты, доля малого бизнеса в ВВП, объем экспорта, государственные гарантии, объем услуг, предоставленных малым бизнесом.

KIRISH

Hozirgi davrda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida kichik biznesning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy xomashyoga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda ushbu sektor muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Kichik biznesni rivojlantirishda eng muhim omillardan biri – bu barqaror va qulay moliyalashtirish tizimining shakllanganligidir. Moliyaviy resurslarga keng va oson kirish imkoniyati kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion g'oyalarni amalga oshirishi, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishi hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va iqtisodiy beqarorlik sharoitida kichik biznes uchun moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi va ularning samaradorligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda tijorat banklari, mikromoliya institutlari, davlat dasturlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud moliyaviy mexanizmlarning amaliy samaradorligi baholanib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular asosan moliyaviy resurslar tarkibi, ularga bo'lgan talab hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri bilan bog'liq. Jahon banki (World Bank, 2022), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, 2021) va Osiyo taraqqiyot



banki (ADB, 2023) tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali bandlik va yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga erishish mumkinligi asoslab berilgan. Beck, Demirgüç-Kunt va Maksimovic (2005) tadqiqotlariga ko'ra, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi kichik korxonalarning moliyalashtirishga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Ularning fikricha, rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa, bank kreditlariga bo'lgan qiyinchiliklar kichik biznes uchun asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston tajribasida esa Qodirov (2020) va Toshpo'latova (2022) kabi mahalliy olimlar kichik biznesni moliyalashtirishda tijorat banklari yetakchi rol o'ynayotganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, moliyalashtirish shartlarining qat'iyligi, garov talablari va yuqori foiz stavkalari kichik tadbirkorlar uchun jiddiy to'siq bo'layotganini ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, jumladan, GIZ, UNDP, EBRD va ITFC loyihalari orqali kichik biznesga kredit liniyalari, grantlar va texnik yordam shaklida moliyaviy resurslar taqdim etilmoqda. Bu dasturlar samaradorligi ADB'ning Country Partnership Strategy for Uzbekistan, 2022–2026 kabi hujjatlar asosida baholangan.

Mikromoliya institutlariga oid adabiyotlarda esa ularning ijtimoiy funksiyasi va moliyaviy inklyuziyani ta'minlashdagi roli ko'proq tahlil qilinadi. Yunus (2007) tomonidan ilgari surilgan mikroqarz g'oyasi, ayniqsa, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, davlat dasturlari asosida moliyalashtirish — masalan, “Har bir oila — tadbirkor” hamda “Yoshlar – kelajagimiz” kabi tashabbuslar — O'zbekiston amaliyotida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu boradagi huquqiy va institutsional asoslar bir qator milliy hamda xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Nematulloyev S.S. (2024) o'z tadqiqotida tijorat banklarining kichik biznesni moliyalashtirishdagi samaradorligini tahlil qilgan holda, investitsion resurslarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Mavjud holatda, kichik biznes subyektlari moliyalashtirish manbalarining cheklanganligidan aziyat chekmoqda. EconStor (2019) hisobotida qayd etilishicha, kichik biznes subyektlarining 64 foizi o'z faoliyatini o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqda, bank kreditlariga murojaat qilish darajasi esa pastligicha qolmoqda.

Said Po'latov (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda islomiy moliyalashtirish xizmatlari kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning muqobil vositasi sifatida o'rganilgan. Ushbu yondashuv shariat qonunlariga asoslangan bo'lib, kichik biznes subyektlari uchun axloqiy va adolatli moliyaviy yechimlarni taklif etadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston hukumati kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli davlat dasturlarini amalga oshirmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) ushbu sohada muhim rol o'ynamoqda. Tuganbekova N. (2024) kichik va o'rta biznes korxonalarining moliyaviy va investitsiya faoliyatini tahlil qilgan holda, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ilgari suradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik taqqoslash, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlili, ma'lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakuniga qadar kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi 52,6 %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatdagi barcha ish o'rinlarining 76 %ga yaqini aynan kichik biznes orqali yaratilgan (1-jadval).

1-jadval. Moliyalashtirish manbalarining tuzilmasi¹

Moliyalashtirish turi	Ulushi (foizda, 2023)	Izoh
Tijorat banklari krediti	48%	Asosiy tashqi manba, biroq yuqori foiz stavkalari va garov talabi mavjud
O'z mablag'lari	28%	Ko'plab tadbirkorlar o'z resurslariga tayangan holda ishlamoqda
Davlat dasturlari	12%	“Yoshlar – kelajagimiz”, “Har bir oila – tadbirkor” dasturlari orqali

1 Manba: O'zbekiston MB, ADB, UNDP, Statistika agentligi (2023)



Mikromoliya va MHTlar	7%	Aholi va ayollar uchun qulay, lekin resurs cheklangan
Xalqaro grant va texnik yordam	5%	UNDP, GIZ, ADB loyihalari, cheklangan miqyosda

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida qaralmoqda. 2023-yil yakunida bu subyektlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, ish o'rinlarining 76 %ga yaqini aynan kichik biznes orqali yaratilgan (Statistika agentligi, 2024). Bu holat Jahon banki tomonidan kichik biznesni bandlik yaratuvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan yondashuv bilan hamohangdir.

Tijorat banklari kreditlari – 48 %. Tahlillarga ko'ra, kichik biznes uchun moliyalashtirishdagi eng asosiy tashqi manba — bu tijorat banklarining kreditlari bo'lib, 2023-yilda jami moliyalashtirishning 48 %ini tashkil etgan. Biroq ushbu manba quyidagi kamchiliklarga ega:

- yuqori foiz stavkalari (24–28 %);
- garov ta'minotining mavjudligi talabi;
- moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi.

Bu muammolar “moliyaviy inklyuziya” darajasini pasaytiradi va ko'plab mikro va kichik subyektlarni norasmiy moliyalashtirish manbalariga murojaat qilishga majbur qiladi.

O'z mablag'lari – 28 %. Tadbirkorlarning 28 %i o'z mablag'lariga tayangan. Bu esa kapital yetishmovchiligi va riskga yo'l qo'ymaslik istagini bildiradi. O'z resurslariga tayanish kichik tadbirkorlikda ko'pincha o'sish va innovatsion kengayish imkoniyatlarini cheklaydi.

Davlat dasturlari – 12 %. O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan “Yoshlar – kelajagimiz”, “Har bir oila – tadbirkor” kabi dasturlar orqali kichik biznes subyektlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu dasturlar orqali past foizli kreditlar va subsidiya shaklida moliyaviy ko'mak berilmoqda. 2023-yilda bu yo'nalishdagi moliyalashtirish ulushi 12 %ni tashkil etdi.

Mikromoliya va MHTlar – 7 %. Mikromoliya tashkilotlari, ayniqsa ayollar va yoshlar uchun moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. ADB va UNDP loyihalari doirasida olib borilgan ishlar ko'rsatishicha, mikrokreditlar kichik miqdorda bo'lsa-da, kreditga kirish imkoniyati past bo'lgan qatlamlar uchun muhim rol o'ynaydi. Ammo ularga ajratilayotgan resurslar hajmi cheklangan.

Xalqaro grantlar va texnik yordam – 5 %. Xalqaro donorlar, jumladan, GIZ, UNDP, ADB va boshqa tashkilotlar kichik biznesni rivojlantirishda texnik yordam va kichik grantlar orqali qo'llab-quvvatlamokda. 2023-yilda ushbu yo'nalishdagi moliyalashtirish jami 5 %ni tashkil etdi. Bu raqam xalqaro tashkilotlar ishtirokining nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Muammolar va takliflar.

Muammo	Izoh	Taklif
Bank kreditlarining qimmatligi	Foiz stavkalari yuqori, garovlar talab qilinadi	Kredit kafilligi jamg'armalarini kengaytirish, foizlarni subsidiyalash
Mikromoliya resurslarining cheklanganligi	Salmoqli miqdorlar ajratilmagan	MHTlarni kapitallashtirish, ularni litsenziyalash jarayonlarini yengillashtirish
O'z mablag'lariga tayanish yuqoriligi	Risklardan qochish va moliyalashtirishga kira olmaslik	Moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish
Xalqaro yordam hajmining kichikligi	Faoliyat cheklangan yoki yo'naltirilmagan	Yangi donorlik dasturlari bilan hamkorlikni kengaytirish

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlaydigan asosiy omillardan biri sifatida muhim rol o'ynamoqda. Biroq ularni moliyalashtirish tizimi hali hanuz yetarlicha samarali va inklyuziv emas. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklarining yuqori foiz stavkali kreditlari kichik tadbirkorlik subyektlari uchun moliyalashtirishda asosiy manba bo'lib qolmoqda, ammo bu kreditlar hamma uchun ham ochiq emas.

Mazkur holatni hisobga olgan holda, quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

Davlat dasturlarini kengaytirish. “Yoshlar – kelajagimiz” va “Har bir oila – tadbirkor” kabi dasturlarni hududlar kesimida yanada takomillashtirish va moliyaviy hajmini oshirish orqali moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish lozim.



Mikromoliya sektorini rivojlantirish. Mikrokredit beruvchi tashkilotlar sonini ko'paytirish va ularning huquqiy maqomini kuchaytirish kichik tadbirkorlik subyektlariga kengroq moliyaviy kirish imkonini yaratadi.

Xalqaro yordamni diversifikatsiya qilish. GIZ, ADB, UNDP kabi donorlar bilan hamkorlikdagi grantlar va texnik yordam dasturlarini yanada ko'lamli va sohalarga yo'naltirilgan holda tashkil etish kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Kichik biznes egalari va xodimlari uchun moliyaviy boshqaruv, kredit olish shartlari, investitsion rejalashtirish bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga joriy etilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga va bandlik darajasining yuqorilashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari – 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Bank tizimi faoliyati to'g'risida hisobot.
3. Nematulloyev S.S. Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain and Legal Innovations, 1(8), 16–22. DOI:10.61796/ejcbt.v1i8.881. License: CC BY 4.0.
4. Sobirovich, N. S. (2025). Financing Small Business Activities through Investments by Commercial Banks. American Journal of Business Practice, 2(4), 80–84. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJBP/article/view/1626>
5. ADB. (2023). Financial Inclusion in Central Asia: Progress and Challenges. Asian Development Bank.
6. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and Legal Constraints to Growth: Does Firm Size Matter? Journal of Finance, 60(1), 137–177.
7. GIZ. (2023). Support for Micro and Small Enterprises in Uzbekistan. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit.
8. OECD. (2021). Entrepreneurship at a Glance 2021. OECD Publishing, Paris.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
